ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Isamiddinova Mexribonu

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti “Dinshunoslik” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

JAHON DINLARIDA “ZIYOLI AYOL” TIMSOLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning asosiy dinlari — yahudiylik, buddaviylik, xristianlik va islom dinlarida ziyoli ayol tushunchasi, ularning jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy me’rosi tahlil qilinadi. Maqolada dinlarning muqaddas manbalari va tarixiy shaxslar misolida ayol kishining intellektual salohiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar; yahudiylik, buddaviylik, xristianlik, islom , ma’rifat, ayol olimalar, intellektual me’ros, ma’naviyat.

Insoniyat tamaddunida din nafaqat e’tiqod tizimi, balki ilm-fan va madaniyat o‘chog‘i bo‘lib xizmat qilgan. Ayol kishining bilim olish masalasi turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, barcha yirik dinlarning tub mohiyatida ilmga intilish insoniy burch sifatida ko‘riladi.Hoh islom dini bo‘lsin, hoh xristian dini, qaysi din bo‘lishidan qat’iy nazar ma’naviy komillikka erishgan, aqliy salohiyati yuqori bo‘lgan shaxslar har zamon va makonda ommadan ajralib kelgan.Bunday jamiyatni shakllantirish esa avvalambor oiladagi muhit va ota-ona tarbiyasidan boshlanadi. Tabiiyki,oilada ota-onaning ma’naviyati farzandining ma’naviyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.Bu jarayonda nafaqat ota,balki onaning ilmli bo‘lishi ham katta ahamiyat kasb etadi.Jamiyatning yarmi ayollar bo‘lsa, qolgan yarmi ularning tarbiyalanuvchilaridir.Shunday ekan, ayolning ilmli bo‘lishi nafaqat oilasiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham manfaatlidir. Quyida jahon dinlari miqyosida imli ayollar timsollarini keltirib o‘taman.

Islom musulmonlarga taraqqiyot yo‘lida yurishni farz qilgan. Kishilarni ilmga undagan,chunki insonni ilmdan boshqa narsa to‘g’ri yo‘lga sola olmaydi va taraqqiyotga ham erishtira olmaydi.Islom dinining muqaddas manbaasi bo‘lmish Qur’oni karimning ilk surasining ilk oyatlari[1] “Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi” degan oyat bilan boshlanganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.Ilmga qiziqtirish borasida Alloh Taolo Qur’oni karimda yana bunday deydi: “Ayting:”Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!” Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar”(Zumar surasi 9-oyat).Qolaversa, hadisi shariflarda ham ilm o‘rganishga targ’ib qilingan. “Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir”[2]. Mazkur oyat va hadisi shariflar musulmon ayollari orasida hayotini yoritib turuvchi mayoq kabi ekanligini islom tarixidagi olima ayollar misolida ko‘rishimiz mumkin.

[1] Shayx Abdulaziz Mansur,Qur’oni Karim. (Ma’nolari tarjimasi) –P.597.

[2] Al-Buxoriy Abu Abdulloh,. *Al-Jome’ as-Sahih.* (Hadis to‘plami)

Oisha binti Abu Bakr.[3] U kishi islomiy ilmlar, ayniqsa, hadisshunoslik va fiqhning asoschilaridan biri hisoblanadi. Sahobalar eng murakkab huquqiy va ijtimoiy masalalarda u kishining huzuriga kelishgan. Oisha (r.a.) jami 2210 ta hadis rivoyat qilganlar. Oisha (r.a) eng ko‘p hadis rivoyat qilgan sahobalar — "Al-Muksirun" (ko‘p hadis aytuvchilar) ro‘yxatida 4-o‘rinda turadilar. Aslida ayollarning din ilmiga hissa qo‘shishi Oisha onamizdan boshlangan bo‘lsada, bugungi kungacha ko‘pchilik alloma ayollar unutilib ketgan.Masalan Fotima al Batayahiyya[4] - VIII asrning eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanilgan olima Damashqda Buxoriyning "Sahih"larini o‘rgatardilar. Ayniqsa Haj vaqtida, bu ayolning nutqini tinglash uchun, mashhur erkak ulamolar olis-olislardan kelishardi. Ilm talabalariga Rasulullоh (s.a.v.)ning muborak masjidlarida dars berar edilar.

Fotima bint Muhammad al Samarqandiy[5]– taxminan 800-yillarda Tunisning Qayravon shahrida tug‘ilgan. Keyinchalik uning oilasi Marokashning Fas shahriga ko‘chib o‘tgan. Uning otasi Muhammad al-Fihriy muvaffaqiyatli savdogar bo‘lib, qizlariga chuqur ta’lim berishga intilgan. O‘zidanda mashhurroq turmush o‘rtog'iga fatvo chiqarish masalalarida maslahat berib turgan huquqshunos. Fotima va uning singlisi Maryam otalaridan katta miqdorda me’ros oladilar. Fotima bu boylikni shaxsiy ehtiyojlariga emas, balki jamiyat uchun manfaatli bo‘lgan xayrli ishga — ilm maskani qurishga sarflashga qaror qiladi. 859-yilda Fotima al-Fihriya tomonidan asos solingan Al-Qaraviyyin dastlab masjid sifatida qurilgan, biroq tez orada u yirik ta’lim markaziga aylangan. Fotima vafotidan keyin ham universitet asrlar davomida davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, bu esa islom madaniyatida ayol kishining ilm yo‘lidagi tashabbusi qay darajada ekanligini bildiradi.

Zaynab bint Kamal – XII asrda 400dan ortiq hadis kitoblaridan dars bergan ayol. Allohning inoyati va go‘zal sabri bilan talabalarining qalbini zabt etardi. U yuksak salohiyatli bo‘lib, uning ayol ekanligi Damashqdagi eng obro‘li ta'lim maskanlarida dars berishiga to‘sqinlik qilmadi.

Xristianlik dinida ilmli ayol tushunchasi va ularning jamiyatdagi o‘rni, tarixiy bosqichlarda o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Bu din tarixida ayollar nafaqat e’tiqod qiluvchilar, balki faylasuflar**,** tabiblar**,** musiqashunoslar va siyosiy maslahatchilar sifatida namoyon bo‘lishgan. Ilk xristianlik davrida (I–IV asrlar) ayollar jamoalarda muhim o‘rin tutgan. O‘sha davrning ma’rifatli ayollari yunon falsafasini xristian aqidalari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilishgan.

Iskandariyalik Katerina (St. Catherine of Alexandria)[6].U antik davrning eng bilimdon ayollaridan biri bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u falsafa, mantiq va ritorika (notiqlik) ilmlarini mukammal egallagan. Uning 50 ta butparast olim bilan ilmiy munozarada g‘alaba qozongani xristianlikda intellektual ayol kuchining ramzi hisoblanadi.Ilk jamoalarda ayollar "Diakonissa" sifatida nafaqat ijtimoiy yordam, balki ayollarga din va odobdan dars beruvchi ustozlar sifatida ham tanilgan. O‘rta asrlarda (V–XV asrlar) dunyoviy universitetlar asosan erkaklar uchun bo‘lgan bir paytda, monastirlar ayollar uchun yagona ilmiy markaz vazifasini o‘tadi. Rohibalar qadimiy qo‘lyozmalarni ko‘chirish, tillarni o‘rganish va kitoblarga ilmiy sharhlar yozish bilan shug‘ullanishgan.

[3] Ibn Sa’d.. *Kitob at-Tabaqot al-Kubro.*

[4]Mo‘minalar jurnali 9-son,2022

[5] Guinness World Records. "Oldest higher-learning institution, oldest university"

[6] The Catholic Encyclopedia**.** "Women in Church History" va "St. Catherine of Alexandria"

Hildegard von Bingen (1098–1179).U xristian intellektual tarixining eng yorqin yulduzi hisoblanadi.Tibbiyotda**:** Inson anatomiyasi va o‘simliklar bilan davolash haqida "Physica" asarini yozgan.Kosmologiyada**:** Olamning tuzilishi va mikrokosmos (inson) hamda makrokosmos (koinot) bog‘liqligini ilmiy-falsafiy asoslab bergan.Musiqa va til: U o‘zining shaxsiy alifbosini (*Lingua Ignota*) yaratgan va 70 dan ortiq musiqiy asarlar yozgan. Uyg‘onish davrida xristian ayollarining jamiyatdagi intellektual roli yanada kengaydi. Bilim endi faqat cherkov doirasida emas, balki dunyoviy hayotda ham muhim sanala boshladi.

Elena Kornaro Piskopiya (Elena Cornado Piscopia)[7] (1646–168)**.**U xristian dunyosida va butun jahon tarixida birinchi bo‘lib falsafa doktori **(**PhD**)** darajasini olgan ayoldir. U Padua universitetida tahsil olgan va yetti tilda erkin so‘zlasha olgan.

Xristianlikda ilmli ayol timsoli — bu faqatgina nazariy bilim egasi emas, balki o‘z ilmini insoniyatga xizmat qilishga yo‘naltirgan shaxs hisoblanadi.

Buddaviylik falsafasida ilm va donolik jinsga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalar hisoblanadi. Ushbu dinda "ilmli ayol" timsoli nafaqat nazariy bilimlarni egallagan, balki hayotning mohiyatini anglagan, ichki xotirjamlikka erishgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Buddizmda ilm faqat kitob o‘qish emas, balki Prajna (Oliy donolik) tushunchasi bilan bog‘liq. Qiziqarli jihati shundaki, buddaviylik san’ati va falsafasida donolik ko‘pincha ayol timsolida tasvirlanadi.

“Prajnaparamita”.Bu tushuncha "Mukammal donolik onasi" deb ataladi. Buddizm falsafasiga ko‘ra, barcha Buddalar aynan mana shu "donolik"dan tug‘iladi. Ya’ni, ilm va haqiqat ayol energiyasi (feminine energy) sifatida ko‘riladi.Budda Shakyamuni ayollar ham erkaklar kabi oliy ma’rifatga (Nirvana) erishish qobiliyatiga ega ekanligini ta’kidlagan. Bu o‘sha davrdagi Hindiston jamiyati uchun inqilobiy yangilik edi. Buddizm tarixida ayollarning ilm olishi va o‘rgatishi Bhikkhuni (ayol rohibalar) jamoasi bilan boshlangan.

Mahaprajapati Gotami.[8] Buddaning o‘gay onasi va birinchi ayol rohiba. U ayollar uchun diniy va falsafiy ta’lim olish huquqini talab qilib olgan. Uning rahbarligida minglab ayollar falsafa va meditatsiya san’atini o‘rganganlar.

Khema va Uppalavanna.[9] Budda bu ikki ayolni o‘zining eng aqlli va bilimdon shogirdlari deb atagan. Khema o‘zining o‘tkir tahliliy zehni bilan mashhur bo‘lib, u murakkab falsafiy savollarga javob berishda "donolik timsoli" sanalgan.

Machig Labdron.[10] XI asrda yashagan buyuk Tibet olimasi. U "Chod" deb nomlangan o‘ziga xos falsafiy va meditatsion maktabga asos solgan. Uning ta’limotlari bugungi kunda ham butun dunyo bo‘ylab o‘rganiladi.

---

[7] Maschietto, Francesco Ludovico. Elena Lucrezia Cornaro Piscopia (1646–1684): The First Woman in the World to Enjoy the Doctorate. Edited and translated by Catherine Marshall. Philadelphia: St. Joseph's University Press, 2007.

[8] Murcott, Susan. *The First Buddhist Women: Translations and Commentary on the Therigatha.* Parallax Press, 1991.

[9] Hecker, H., & Nyanaponika, T. (2003). Great Disciples of the Buddha: Their Lives, Their Works, Their Legacy. Wisdom Publications.

[10] Duby, Georges & Perrot, Michelle. *A History of Women in the West (Vol. 2: Silences of the Middle Ages).* Harvard University Press, 1992.

Yahudiylik, buddaviylik, xristianlik, islom kabi yirik dinlarning tub mohiyatida ilm olish jinsga bog‘liq bo‘lmagan muqaddas burch sifatida talqin etiladi. Islomda bu "farz" darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, Buddizmda "oliy donolik" (Prajna) ayol timsolida ulug‘lanadi. Dinlarda ilmli ayol faqat shaxsiy kamolotga erishuvchi emas, balki jamiyatning axloqiy va intellektual poydevorini shakllantiruvchi strategik shaxs sifatida ko‘riladi. Oisha r.a. misolida ko‘rganimizdek, ayol kishi butun bir ummatning huquqiy va ma’naviy ustozi bo‘lib xizmat qiladi. Dinlar tarixidagi olima ayollar merosi bugungi kundagi "din ayollarning bilim olishini cheklaydi" degan asossiz qarashlarni ilmiy jihatdan inkor etadi. Aksincha, dinlar sivilizatsiya tanazzulga yuz tutgan davrlarda ham ayollar uchun monastir va madrasalar shaklida o‘ziga xos "intellektual boshpana" vazifasini o‘tagan. Ziyoli ayol tushunchasi — jahon dinlarida birdek e’tirof etiladi. Ularning ilmiy merosini o‘rganish bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy-ma’rifiy muammolarni hal etishda va yosh qizlarni ilm olishga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shayx Abdulaziz Mansur,Qur’oni Karim. (Ma’nolari tarjimasi) –P.597.
2. Al-Buxoriy Abu Abdulloh,. *Al-Jome’ as-Sahih.* (Hadis to‘plami)
3. Ibn Sa’d.. *Kitob at-Tabaqot al-Kubro.*
4. Mo‘minalar jurnali 9-son,2022
5. Guinness World Records. "Oldest higher-learning institution, oldest university"
6. The Catholic Encyclopedia**.** "Women in Church History" va "St. Catherine of Alexandria"
7. Maschietto, Francesco Ludovico. Elena Lucrezia Cornaro Piscopia (1646–1684): The First Woman in the World to Enjoy the Doctorate. Edited and translated by Catherine Marshall. Philadelphia: St. Joseph's University Press, 2007.
8. Murcott, Susan. *The First Buddhist Women: Translations and Commentary on the Therigatha.* Parallax Press, 1991.
9. Hecker, H., & Nyanaponika, T. (2003). Great Disciples of the Buddha: Their Lives, Their Works, Their Legacy. Wisdom Publications.
10. Duby, Georges & Perrot, Michelle. *A History of Women in the West (Vol. 2: Silences of the Middle Ages).* Harvard University Press, 1992.